



ILOVA HODISASINING NEMIS TILIDA PREDLOGLOGLAR BILAN IFODALANISHI

Karimova Lutfiya Baxodirovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8080553>

Hozirgi nemis tilida predloglar yordamida ifodalanib kelgan ilovali elementlar o'zlariga xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlarini tahlil qilib, ilovali elementlarning ayrim xususiyatlarini va ularning o'ziga xos bo'lgan funksiyalarini ham ko'rib chiqamiz. O'zlariga xos bo'lgan ana shunday xususiyatlari bilan bu toifaga taalluqli ilovali elementlarning ichida alohida olingan strukturaviy guruhlanishni tashkil etadi va bu ko'rinisdagi struktura doirasida har xil funksiyalarni bajarib keladi. Ilovali elementlarning ilova qurilma tarkibida bajarib kelayotgan funksiyalarning tahlilidan avval, nemis tilidagi predloglarni takrorlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Nemis tilida yozilgan asar yoki grammatikaga oid biror bir darsliklarni, o'quv qo'llanmalarni ko'rib chiqsak, albatta u yerda predloglar va predloglarning qo'llanilishiga duch kelamiz. Nemis yozuvchisi Duden o'zining „Grammatik der Deutschen Gegenwartsprache“ nomli kitobida german tilida mavjud bo'lgan predloglar, ularning kelib chiqishi, gaplarda qo'llanilishi, o'ziga tegishli bo'lgan bir kelishikni talab qiluvchi predloglarning boshqa bir kelishik bilan kela olishi, shuningdek, predloglarning o'zgaruvchanliklari to'g'risida fikr va mulohazalar yuritadi.

Ba'zi hollarda predloglarning bunday o'zgaruvchanlik xususiyatlari ham, xuddi ilovali elementlarning tarqalish darajasi kabi u yoki bu yozuvchining individual uslubiga borib taqaladi. Masalan tilshunos B.T.Tursunov fikricha, u ba'zi bir grammatik kategoriyalarni aniqlashda unga matn nuqtai nazardan yondashmoq kerak» deydi. Bu aytilgan fikr keyingi vaqtlarda ayrim mavzularning tekshirish nuqtasiga aylanmoqda.

Endi bu qismda qo'yilgan vazifaning mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Haqiqatdan ham ko'tarilayotgan muammolar keyinchalik matnlar doirasida, boshqacha qilib aytganda yozuvchilarning asarlarida hal qilinmoqda. Ana shunday muammolardan biri – bu nemis tilida akkuzativ kelishigini talab qiluvchi predloglarning ilovali elementlar funksiyasi o'rnida kelishidir.

Gap tarkibida predloglar bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar, predlogsiz ifodalanib kelgan ilovali elementlarga strukturasiining soddaligi jihatdan yaqin tursa-da, biroq ayrim xususiyatlari bilan butunlay farq qiladi. Bu





farqlarni quyidagicha izohlash mumkin: ilova qurilma komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar asosiy ifoda funksiyasida keluvchi bosh bo'laklarning yaxlitligi bilan ifodalanadi. Chunki bunday hollarda gaplarning bosh bo'laklari ikki xil funksiyada keladi: birinchidan, ular o'zlarining tarkibiga kiruvchi komponentlari uchun yetakchilik rolini o'ynasa, ikkinchidan, esa xuddi shunday rolni iloval elementlar uchun bajaradilar, bu iloval elementlar tomonidan asosiy ifodaga bildirilayotgan va qo'shimcha ma'no xususiyatiga ega bo'lgan kommunikativ funksiyalar asosiy ifodadasidan tahlil qilinadi. Ko'plab misollarda iloval elementlarning aniqlashtirish, reallashtirish, to'ldirish xarakteriga ega bo'lgan kommunikativ funksiyalar, asosiy gap tarkibidagi bosh gaplarning mazmuniga qaratilgan va bu qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi. Akkusativ kelishigi predlogi „durch“ bilan ifodalangan iloval element yakka va kengaytirilgan holda kelishlari mumkin. Iloval elementlarning strukturaviy kengayishi, ularning ma'no tomonidan kengayishiga olib keladi.

Durch predlogi bilan ifodalanib kelgan elementlarga xos bo'lgan bunday funksiyalar, boshqa xuddi shunday predloglar bilan ifodalanib kelgan iloval elementlarning strukturaviy va ma'noviy xususiyatlari bilan yanada boyishi, kengayishi va to'ldirilishi mumkin.

Genitiv kelishigi predlogi gegen bilan ifodalanib kelgan iloval elementlar, durch predlogi bilan ifodalanib kelgan iloval elementlarga o'xshash yozma matnlarda uncha keng yoyilish darajasiga ega bo'lmasa-da, biroq shu toifaga moyil bo'lgan iloval elementlarning strukturaviy guruhlarini tashkil etishda ishtirok etadi,

Gegen predlogi bilan ifodalangan iloval elementlar:

1. Man müsste nach der Gymnastik ein warmes Bad nehmen. Gegen die Muskalhasser. [Herbert Otto 1972: 179]

2. Jedenfalls hupt nachts das Auto vor dem Haus. Und hupt. Um zwei Uhr morgens. [Herbert Otto 1972: 150]

3. „Und dann mit Panzern! Und die aus dem Westen können rüberkommen. Es geht wieder nur gegen uns. Immer gegen die armen Leute“. [Silbmann Fritz 1971:42]

Yuqorida keltirilgan misollarda qo'llangan iloval elementlarning kommunikativ funksiyalari yordamida asosiy ifoda tarkibida sodir bo'layotgan voqea hodisalar konkretlashtiriladi, reallashtiriladi va to'ldiriladi. Masalan 3 misolda asosiy ifoda tarkibidagi bildirilayotgan ma'no Immer gegen die armen Leute shaklidagi iloval elementlarning ma'nosi bilan yanada konkretlashtiriladi, ya'ni G'arbdan kelayotgan tachkalar bizga qarshi qaratilganligi va bizlar qimlar





ekanligimiz ilovali element erdamida konkretlashtiriladi, shu sababli bizlarga qarshi qaratilganligi - oddiy kambag'al kishilarga qaratilganligi aniqlanadi.

Durch, gegen predloglari bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarning bunday funksiyalari für predlogi yordamida ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning xuddi shunday funksiyalari bilan yanada boyitiladi. Chunki für predlogi bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlar, faqatgina durch va gegen predloglari bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlardan emas, balki shu toifaga taalluqli bo'lgan barcha ilovali elementlardan o'zining yoyilish darajasi bilan farq qiladi. Chunki für yordamida keluvchi ilovali elementlar har xil strukturaviy ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin.

Für predlogi bilan ifodalangan ilovali elementlar:

1. «Entschuldigung! Endymion war für mich eine entscheidende Etappe für meine Arbeit». [Krupkat Günter 1967: 79.]

2. „Danke, Li“, antwortete er freundlich. „Sie haben auch Anteil daran. Aber es gibt noch viel zu tun. Für uns beide.“ [Krupkat Günter 1967: 40.]

3. «Habe kein Bett frei. Für einen verlorenen Sohn». [Herbert Otto.1972.78.]

4. Und ich verlasse hier, wo ich bin. Für alle Fälle. [Herbert Otto.1972.155.]

Ba'zi hollarda für predlogi bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarning strukturaviy tarkibida ayrim komponentlarning joylari o'zgarishi mumkin.

5. „Für Hennig Maktenfel auch“, antwortete Klaus Störtebeker. Nicht für uns. [Krupkat Günter 1967: 105.]

6. „Sie hat gezögert. Es ist verboten...“ [Krupkat Günter 1967: 234.]

«Für» predlogi bilan ifodalanib keluvchi ilovali elementlar o'zlariga xos bo'lgan barcha xususiyatlari bilan xuddi shunday strukturaviy shaklga ega bo'lgan ilovali elementlarning xususiyatlarini to'ldiribgina qolmaydi, balki ularni yangi tomondan boyitadi. Ilovali elementlarning tarkibida sodir bo'layotgan ayrim komponentlarning variativligi holati, shu ilovali elementlarning ta'sirchanlik, ekspressivlik xususiyatlarini kuchaytiradi, ularga nisbatan kitobxonning diqqat-e'tiborini yanada oshiradi. Ilovali elementlarga xos bo'lgan variativlik nicht, auch komponentlarining doimo o'z o'rinlarida kelmasliklari bilan xarakterlanadi. Bu hol ilovali elementlarning stilistik tabiatini yana bir bor oshiradi, ta'biricha stilistik hodisaning o'zginasidir». I.R.Galperinning bu mulohazasi B.M.Axmedovaning nomzodlik dissertatsiyasida o'zining yorqin ifodasini topdi.



«Für» predlogi yordamida keluvchi ilovali elementlarning strukturaviy kengayishi, shu ilovali elementlar tarkibida ayrim komponentlarning, ya'ni kommunikativ nutq birliklarining takrorlanishi bilan sodir bo'lishi mumkin:

Wir fahren nach Poissy, Marie-Elisabeth oder nach Corbeil. Nur für ein paar Wochen, für ein paar Tage.[Bredell Wille 1981: 233]

Nun, es wurde in Minuten aufgezeichnet, und ich habe es unterschätzt; das war das ende. Für mich nicht, nicht für das Dorf. [Bredell Wille 1981:15]

Demak, ilovali elementlar oldidagi biriktiruvchi bog'lovchining leksik-grammatik yo'llar bilan kengayishi, ilova qurilma komponentlari orasida mavjud bo'lgan grammatik keskinlikning yumshashiga olib keladi, natijada ular oralig'ida mavjud bo'lgan vaziyat silliqlashadi, ya'ni rovon xarakterga ega bo'ladi. Bu holat ilovali elementlarning barcha kengaytirilgan strukturaviy guruhlariga xos bo'lgan xususiyatlardir.

Predloglar bilan ifodalanib kelgan ilovali elementlarni sintaktik-semantik tomondan tahlil qilish, ularga xos bo'lgan, hali unchalik aniqlanmagan funksiyalarni lekin izohlashga yordam beradi. Ular ustida olib borayotgan kuzatishlarimiz asosida bu yerda quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tishni o'rinli, deb hisoblaymiz.

Ilovali elementlar turli xil funksiyalarni bajarib keladilar. Bu funksiyalar borgan sari kengayib, yangi-yangi fikr va mulohazalarni keltirib chiqaradi, ya'ni ilovali elementlarni o'rganishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaradi. Ularni o'rganishga bo'lgan bunday munosabatlarning o'zgarishi shu ilova qurilmaning tabiati bilan uzviy bog'liqdir.

Shu vaqtgacha ilova hodisasi ko'p tillarda o'rganilib kelindi, uning strukturaviy, ma'noviy va uslubiy tomonlari o'rganildi. Biroq, bu usulda o'rganish har bir ilovali elementning ichki mohiyatini o'rganishga olib keladi, Natijada, elementlar bilan ilovali bog'liq bo'lgan juda ko'plab funksiyalar izlanish maydonidan chetda qolib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Begmatov. To'ldiruvchilar bilan ifodalangan ilovali elementlarning funksiyalari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 1999.
- 2.B.M.Axmedova. Ilova qurilmaning ba'zi bir strukturaviy xususiyatlari. (L.Feyxtvanger asarlari asosida). - Samarqand: SamDU. 1997.-53.
- 3.B.T. Tursunov. Yagona sintaktik kategoriya ostida. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (Samarkand 16-17-noyabr 2000-yil). -Samarqand: SamDChTI. 2000. -b. 10-14.
- 4.Турсунов Б.Т. Обособление и присоединение. Ilmiy tatqiqotlar axborotnomasi. (Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. -Samarqand: 2005, № 2. -B. 57-59.



5. Herbert Otto. Zum Beispiel Josef. Aufbauverlag Berlin und Weimar, 1972, 285 S.

6. Bredel Willi. Erzählungen I. Aufbau- Verlag Berlin und Weimar, 1981, 390 S.

